

YANGI O‘ZBEKISTONNI QURISHDA JADIDLAR G‘OYALARIGA TAYANISH

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti
Norboyeva Maftuna Shavkat qizi*

Annotatsiya. Jadidchilik harakatlari va ularning jamiyat hayotiga ta’sirini o‘rganish va baholash hozirgi kunning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Mazkur maqolada jadidchilikning vujudga kelishi uning namoyondalari jumladan Maxmudxo‘ja Behbudiy ilmiy ishlari, jamiyatga qo‘shgan hissasi o‘rganilib, hozirgi zamon bilan bog‘lashga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiston muxtoriyati, mustamlakachilik, jadidchilik harakatlari, “Usuli jadid”, “Usuli savtiya”, Padarkush.

ТВОРЧЕСТВО МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДЖАДИДОВ

*Международная Исламская Академия Узбекистана
Норбоева Мафтунa Шавкат кизи*

Аннотация. Изучение и оценка джадидистских движений и их влияния на жизнь общества в настоящее время является одной из важнейших областей. В данной статье исследуется возникновение джадидизма, его проявления, в том числе научные труды Махмудходжи бехбуди, его вклад в общество, и делается попытка связать его с современностью.

Ключевые слова: Автономия Туркестана, колониализм, движения джадидизма, «Усули Джадид», «Усули Савтия», Падаркуш.

MAKHMUDKHOJA BEHBUDI'S WORK IN THE INTERPRETATION OF THE JADIDS

*International islamic academy of Uzbekistan
Norboeva Maftuna Shavkat qizi*

Abstract. The study and evaluation of jadidism movements and their impact on the life of society has been one of the important areas of the present day. In this article, the emergence of jadidism was studied by its manifestations, including the scientific work of Makhmudkhoja Behbudi, his contribution to society and tried to connect it with the present.

Key words: Autonomy of Turkestan, colonialism, Jadidism movements, "Usuli Jadid", "Usuli Savtiya", Padarkush.

Kirish.

Tarixda aksariyat musulmon jamiyatlari mustamlaka qilingan bo'lib, Markaziy Osiyo shular jumlasidandir. Markaziy Osiyoda zamonaviy milliy o'zlikni shakllantirishda jadidlar o'ta muhim rol o'ynagan. Muhim jihatlaridan biri jadidchilikning mustamlakachilik va zamonaviy ta'lim uchun kurash sharoitida vujudga kelganidir.

Bir zamonlar bo'lganki, jadidchilikning ijtimoiy-siyosiy, davlatchilik jihatlarini muhokama qilinmagan. Vaholanki, 72 kun umr ko'rgan Turkiston muxtoriyati tarixdagi eng e'tiborga loyiq hodisalardan biri hisoblangan. Shu yo'sinda mamlakatimizda ham mustaqillikdan keyin jadidlar haqqiga hurmat, ular qoldirgan ishlarni o'rganish ishlari boshlandi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev 2023-yil, 22- dekabrda bo'lib o'tgan ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida O'zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni berdi. Shuni ta'kidladiki, mamlakat madaniy diplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o'zbek xalqi jadidlar ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay borishi kerakligi ta'kidlandi.

Asosiy qism.

Jadidchilik harakatlari dastlab **XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek** Gasprinskiy rahbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga kela boshlagan. Jadidchilik namoyandalari dastlab o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Bu harakatning rivojlanishiga asosiy sabablar sifatida mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yilishi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchayishini kiritish mumkin. Bunga qo'shimcha sifatida, hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi, madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish harakatlari boshlandi.

Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va zirotchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtning obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurasha boshladilar.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi:

- yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish;
- qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish;

- turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish;
- gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Yuqorida keltirilgan yo’nalishlardan kelib chiqib, jadidchilik harakati quyidagi maqsadlarni belgilab olishgan:

- Turkistonni o’rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish;
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o’rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish; – barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo’shin tuzish.

Ushbu harakatlarni amalga oshirishda yetakchilardan biri bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiy tomonidan amalga oshirilgan say- harakatlarga to’xtalib o’tamiz.

Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog’ida tug’ilgan bo’lib, dastlab Samarqand madrasasida, so’ngroq Buxoroda tahsil olgan. An’anaviy tahsil, so’ng esa o’z ustida qunt bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko’tarilgan. U xalqqa yordam berish maqsadida dastlab Samarqandda S. Siddiqiy va A. Shakuriy kabi maktablarni ochadi. Bu maktablarni darsliklar bilan ta’minlash uchun ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug’rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug’rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblarini ishlab chiqadi.

Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktabning o’zigina kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo’lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o’z qabohatini ham, malohatini ham ko’ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” dramasini yozish g’oyasi shu tariqa vujudga keldi. “Padarkush” – o’zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. U jaholat va nodonlik, o’qimagan bolaning buzuq yo’llarga kirishi natijada o’z otasini o’ldirgani haqida hikoya qiladi. Boyning Toshmurod ismli o’g’li bo’lib, boy atrofdagilarning gapiga kirmay, o’g’lini o’qitmaydi. Oqibatda u ko’cha bezorilariga qo’shiladi. Maishatga berilib ketgan nodon o’g’il uyidagi pullarni olaman deb, o’z otasining o’limiga sabab bo’ladi.

Jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsachi?!... Bu asarda butun bir millat ahvoli ushbu personajlarga qiyosan yozilgan. “Padarkush” dastlab Samarqandda sahnaga qo’yiladi. “Xalq nihoyat ko’p kelib, bilet yetmagani va joyni yo’qligi uchun uch-to’rt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot. Bu xalq orasida teatrga bo’lgan muhabbat, qiziqishning yaqqol namunasidir.

M.Behbudiy milliy til masalasiga katta e'tibor qaratdi. Birgina uning "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, "Ikki emas, to'rt til lozim" nomi bilan chiqqan maqolasi buning yaqqol misolidir.

Behbudiy o'z davrining fidoyi, ma'rifatparvar, qo'rqmas va har qanday qiyinchiliklarga chidamli insonlaridan biri bo'lgan. Yozgan kitoblari hamda maqolalari juda ham qaltis davrda yozilgan bo'lishiga qaramay, Behbudiy ularni chop etishdan, uni ommaga taqdim etishdan hech ham cho'chimagan. Behbudiyning publisist sifatida faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etgan. Buni uning o'z fikrlarini aniq, ochiq va ravon bayon qilishida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Hozirgi zamonga tog'ri keladigan Behbudiyning quyidagi mashhur so'zlari alohida e'tirofqa loyiqdir. "To'y va hashamlarga qilinaturg'on aqchalarimizni, biz, turkoniylar, ilm va din yo'liga sarf etsak, ovro'paliklardek taraqqiy etarmiz va nafaqat o'zimiz balki dinimiz obro' va rivoj topgay. Lekin hozirgi holimizda davom etsak, din va dunyoga zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur". Bu fikrdan ortiqcha hashamga berilmaslikni hamma narsada me'yori bo'lishini aks holda jamiyat a'zolari o'rtasida kim o'zar yanada ko'payib ketishini tushinishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Behbudiy kabi jadid bobolarimiz ilmiy ishlarini o'rganib, mamlakatimiz rivojida undan samarali foydalanishimiz kerak. Ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodda Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, jamiyatda so'z erkinligini ta'minlashda ular yozib qoldirgan ilmiy meros dastrul amal bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi stipendiyaning joriy etilishi ham yurtimiz yoshlari qalbida yuksak bilim va ma'rifatlik, vatanparvarlik tuyg'ulari jo'sh urib turishiga, faxr va iftixor tuyg'ularini tuyishiga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Behbudiy, M. (2018). Tanlangan asarlar. II-jild. Akademnashr 49
2. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil
3. Behbudiy B. "Tiyotr nadur", "Oyina" jurnali, 1914 yil 10 may, №29. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 15-bet.
4. Behbudiy B. "Ikki emas, to'rt til lozim", "Oyina" jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr, -2018yil

5. Djokhongirovna, K. N. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 4045-4054
6. Qosimov B. (1990). Behbudiy va jadidchilik. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati (01.26).
7. Sog’uniy, A. (2020). Tarixi Muxammadiy. Movarounnahr. 350.
8. Solijon Ergashevich Ibragimov, Jadidchilik harakati, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784
9. <http://www.islaminstitut.uz/>